



UDK 372.6(021)

RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI**Rahimqulova Lobar Hamro qizi,***Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida assistent o'qituvchisi*lobarlobar102@gmail.com<https://orcid.org/0009-0004-6238-322>**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18871951>

Annotatsiya. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida unli va undosh harflarni almashtirib, tushirib qo'llash bilan bog'liq xatoliklar ko'plab kuzatiladi. Bu esa lingvistik ekspertiza jarayonida foydalanuvchining lingvistik portretini yaratishga xizmat qiladi. Bu kabi vositalar hissiy bo'yoqni ifodalash maqsadida ataylab qo'llanilishi va ruhiy og'ish holatlarida esa ongsiz ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so'z. Prosodiya, tonal vositalar, grafik realizatsiya, qayg'u, g'azab, salbiy his-tuyg'ular, kodlar aralashuvi.

Abstract. In social network correspondence, there are many errors associated with the substitution and omission of vowels and consonants. This serves to create a linguistic portrait of the user in the process of linguistic examination. Such tools can be used deliberately to express emotional coloring, and in cases of mental deviations, they can be done unconsciously.

Keyword. Prosody, tonal means, graphic realization, sadness, anger, negative emotions, code mixing.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida foydalanuvchilar tomonidan nostandart imlodan keng foydalanish holatining guvohi bo'lamiz. Bu kabi nostandart imlo ham lingvistik ekspertizada muallifning demografik belgisini ifodalovchi vosita vazifasini bajaradi. Lingvistik ekspertiza obyektini hisoblanuvchi yozishmalarning fonetik tahlilida quyidagi belgilar ahamiyatga molikdir:

1. Unli va undosh tovushlarning qo'llanilishi;
2. Prosodiya.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi nutq shakli kommunikativ tilshunoslikning tadqiqot obyektini hisoblanib, ruhiy holatning fonatsion jihati ham tadqiq etiladi. Bu holat esa muloqot jarayonining ichki tomondan murakkab hamda ko'p aspektlilikini, uning aloqa-munosabat jarayonida qatnashuvchi foydalanuvchilarning ruhiy holatiga, kommunikativ munosabatiga, muloqot jarayonining sharoiti, yoshi, millati, diniy e'tiqodi, hududiy mansubligi, dunyoqarashi kabi bir qator omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *Siz bu masalalarni avval yaxshilab tushunib olmabsiz-da ,ukajon,* □. Bu misolda "ukajon" ijobiy mazmunga ega bo'lgan so'z ohang hamda emoji yordamida salbiy mazmunga ega bo'lgan.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida foydalanuvchilarning his-tuyg'ulari tilning fonetik birliklarida aks etadi. Fonetik vositalar fonologik tovush o'zgarishlarini, urg'u



va tonal vositalarni o‘z ichiga oladi, ularni matnlarda ularning grafik realizatsiyasi yordamida ifodalash mumkin¹.

Prosodik vositalar (urg‘u, to‘xtam, pauza) an‘anaviy tilshunoslikda ovoz yordamida internet va ijtimoiy tarmoq yozishmalarida grafik, ishoraviy belgilar yordamida ifodalanadi. Prosodik vositalar shaxsning emotsional-hissiy holatini namoyon qilishda asosiy vosita vazifasini bajarganligi sababli ham sud-lingvistik psixologik ekspertizasida muhimdir.

Хмм . Купрок хитойликларни таклиф
килинглар , иш беринглар 😊



42

Reply See translation



лекин жазоламайди аник 100 % сабаби
чет давлатлиларга хурматимиз баланд,
узимизни юртдошимизга куллайсиз
жазони



68

Reply

2.2.3-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarda prosodik birliklarning ifodalanishi.

Taklif qilinglar, ish beringlar jumlasini aslida ijobiy yoki neytral birikma bo‘lsa ham bu yozishmada kesatq, piching, tanqid, g‘azabni ifodalashga xizmat qilgan. “Hmm”, “emoji” “ohang” bu mazmuni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ikkinchi yozishmadagi “hurmatimiz baland”, birikmasi ham piching, tanqid, kinoya kabi mazmuni ifodalashga xizmat qilgan bo‘lib, talaffuz ohanggi bu mazmuni ifodalashga xizmat qilmoqda. Ohang asosan og‘zaki nutqda emotsional fonni shakllantirishga xizmat qiladi. Yozma nutqda esa turli birliklar bilan ifodalanadi.

A. Nurmonovning ta’kidlashicha, 5 fonema, 2 bo‘g‘in, 1 morfema, 1 so‘zdan iborat Ahmad so‘zining talaffuzida ohang yordamida 16 xil mazmuni ifodalash mumkin (javob, undalma, savol, javob, hayratlanish, ogohlantirish, qahr, ta’na, jirkanish, yumshoq so‘kish, yalinish, g‘urur, qo‘rqinch va boshqalar)².

Jahon tilshunosligida ham o‘zbek tilshunosligida ham bosh harflardan foydalangan holatda emotsional holatni ifodalash holatlari kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida bu holatning ko‘plab guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tilshunosligida bu boradagi tadqiqot ishlarini yetarlicha deb bo‘lmaydi. M. Heath tadqiqotlarida bosh harflardan urg‘u, pauza, ohangni va insonlarning hissiy holatini ifodalashda foydalanuvchi prosodik vosita ekanligini ta’kidlaydi. Ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalashda hissiyotning kuchli ekanligini, qayg‘u, g‘azab kabi salbiy his-tuyg‘ularni ifodalashda hissiyotning kuchsiz ekanligini ta’kidlaydi³.

¹ Ebzeeva Y.N. Graphic Realization of Phonetic Expressive Means of Emotivity (Based on the Works of Fiction of Modern French, English and German Authors) // Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy, 2015. –Vol 6. – No 6. S2. – P. 260.

² Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari. – Andijon, 1980. – 5 b.

³ Heath M. Orthography in Social Media: Pragmatic and Prosodic Interpretations of Caps Lock// Proceedings of the Linguistic Society of America.2018.-Vol.3, – No.1. – P.55:1-13. – P. 1-4.



2.2.3-jadval.

Prosodik va fonografik vositalar

№	Prosodik vositalar	Misollar	Izoh	Ruhiy holat
1	Urg'u	<i>Ko'proq xitoyliklarni taklif qilinglar, ish beringlar</i> □	“Xitoyliklarni”, “taklif qilinglar”, “ish beringlar” jumllariga urg'u berilgan. Emoji esa urg'u ostidagi so'zga yuklangan emotsional mazmuni kuchaytirishga xizmat qilgan	Norozilik, g'azab, tanqid, kinoya
2	Pauza	<i>Men shunchalik baxtlimanki.....</i>	Ko'p nuqtadan foydalanish	Quvonch
3	Talaffuz ohangi	<i>Sog' bo'l shakarim</i>	Shakarim aslida ijobiy mazmunda qo'llaniladigan so'z. Bu gapda tanqidiy mazmundagi undalma vazifasini bajarmogda	G'azab va norozilik
4	Bosh harflardan foydalanish	<i>Men talaba bo'ldim!! Juda hayajondaman. Bu hayot chindan ham go'zal. Men ham tulov qildim alhamdulillah judayam xursandman. Bor yo'qol. faqat meni eshitasan.</i>	Kuchli hissiyotni ifodalash uchun butun gap tarkibidagi so'zlar bosh harflar bilan yozilgan	Quvonch, G'azab, Hissiy bosim
5	Kodlar aralashuvi	<i>Яхшииаа,? Хилола когда все поздравляют, я тоже поздравляю</i>	O'zbek va rustiliga oid so'zlardan foydalanish	quvonch

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvistik ekspertiza jarayonida yozishmaning lingvistik, sotsiologik, psixologik portretini yaratishda prosodik vositalar tahlili muhim bo'lib, birgina kodlar aralashuvi ham shaxsning millati, til bilish darajasi, o'ziga xos nutq uslubi haqida xabar beradi. Tilshunoslikda kodlar aralashuvi sotsiolingvistik marker sifatida baholanadi⁴, psixologik tomondan shaxsning bir nechta ijtimoiy guruhlarga mansub ekanligini belgilaydi. Masalan, **Ilva 1.**

Bu yozishmalarda bosh harflardan foydalanish ijobiy va salbiy hissiyotlarni ifodalash maqsadida qo'llanilgan:

Ijobiy: Barcha harflar bosh harflarda yozilgan-xursandchilik, taklif; ayrim so'zlar tarkibidagi barcha harflar bosh harflarda yozilgan (bosh harflar orqali ma'lum bir so'zlarga urg'u berilgan) – quvonch, shukronalik; ayrim so'zlar tarkibidagi ayrim harflar bosh harflar bilan yozilgan-quvonch.

Salbiy: Barcha so'zlarning birinchi harfi bosh harflar bilan yozilgan – g'azab; ayrim so'zlarning faqat birinchi tovushi bosh harflar bilan yozilgan – norozilik.

An'anaviy tilshunoslikda fonetik, morfemik, morfologik, sintaktik me'yorlar mavjud bo'lib, bu me'yorlarga ijtimoiy tarmoq yozishmalarida amal qilinmaydi. Norma – bu

⁴ Sashchenko. N.P. “Social mood of Russian societz as a marker of socioβpolitical changes in conditions of uncertaintz”. Sociopolitical Sciences, Vol 14, No 4 (2024). – P. 34-43.



ma'lum bir til rivojlanishining turli tarixiy davrlarida nutqda fonetik, morfologik, sintaktik, stilistik qoidalarning qo'llanilishi⁵. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tili o'z uslubiga ega bo'lib, norasmiy chat guruhlarida va kommentariylarda norasmiy imlodan keng foydalanishninguvohi bo'lish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan imloviy, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik me'yorlarga amal qilinmaslik holatlari shaxsning lingvistik portreti chizishga xizmat qiladi. Agarda ijtimoiy tarmoq yozishmalari an'anaviy tilshunoslik me'yorlariga amal qilinishi lozim bo'lsa lingvistik ekspertiza jarayonidagi yordam beradigan shaxsning identifikatsion belgilarining yo'qolishiga sabab bo'ladi bu esa ijtimoiy tarmoqlar ustida amalga oshiriladigan lingvistik ekspertiza jarayonini yanada murakkablashtiradi. Sababiki aynan me'yorlarga amal qilmaslik muallifi noma'lum bo'lgan yozishmalarda foydalanuvchining kasbi, yoshi, ruhiy holati, dunyoqarashi, hududiy mansubligi kabi muhim jihatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Unli, undosh tovushlarning o'zgarishi talaffuz, tembr, ohang, urg'u, bo'g'in shaxsning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Fonetik vositalarning mazmuni va ularning matn semantikasiga ta'sirini o'rganuvchi fan **fonosemantika** deyiladi. O'zbek tilida jumlaning hissiy tomoni **emfatik** urg'u yordamida yuzaga chiqadi. Emfazani ifodalash uchun esa so'z tarkibidagi yo unli, yo undosh cho'ziladi⁶. Hozirgi o'zbek tilida fonetik yo'l orqali mazmuni kuchaytirishning quyidagi ko'rinishlari mavjuddir:



Yuqorida sanab o'tilgan fonetik hodisalarning qo'llanilishida o'ziga xos shart-sharoitlar va qonun-qoidalar mavjud. Shuningdek, fonetik usulda ekspressivlikni ifodalashning ayrim ko'rinishlari mavjud bo'lib, kuchaytirish, kuchsizlantirishdan tashqari, erkalash, suyish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu ma'nolar tovush o'zgarishi, tovush almashinishi, unlini cho'zish, tovush orttirish va so'zni bo'g'inlarga ajratish, har bir bo'g'inni kuchli talaffuz qilish kabi usullar bilan yuzaga keltiriladi⁷.

⁵ Narziqulova R. Phonetic stylistic methods and methodological application of phraseology in english and uzbek // Novateur publications. – 2021. – P. 327.

⁶ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O'zMu., 2008. – 202 b.

⁷ Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent, 1987. – 3 b.



Ijtimoiy tarmoqlardagi fonetik va grafik vositalar hissiyotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etmay, balki hissiy bo‘yoqni ochib berishga, badiiy asarning umumiy ohangini yaratishga xizmat qilishi va bu holat o‘quvchining personajlarning holatini yaxshiroq tushunishiga yordam berishi mumkin⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ebzeeva Y.N. Graphic Realization of Phonetic Expressive Means of Emotivity (Based on the Works of Fiction of Modern French, English and German Authors) // Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy, 2015. –Vol 6. – No 6. S2. – P. 260.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari.– Andijon, 1980. – 5 b.
3. Health M. Orthography in Social Media: Pragmatic and Prosodic Interpretations of Caps Lock// Proceedings of the Linguistic Society of America.2018.-Vol.3, – No.1. – P.55:1-13. – P. 1-4.
4. Sashchenko. N.P. “Social mood of Russian societz as a marker of socioβpolitical changes in conditions of uncertaintz”. Sociopolitical Sciences, Vol 14, No 4 (2024). – P. 34-43.
5. Narziqulova R. Phonetic stylistic methods and methodological application of phraseology in english and uzbek // Novateur publications. – 2021. – P. 327.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zMu., 2008. – 202 b.
7. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent, 1987. – 3 b.
8. Ebzeeva Y.N. Graphic Realization of Phonetic Expressive Means of Emotivity (Based on the Works of Fiction of Modern French, English and German Authors) // Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy, 2015. -Vol 6 No 6 S2. – P. 259.

⁸ Ebzeeva Y.N. Graphic Realization of Phonetic Expressive Means of Emotivity (Based on the Works of Fiction of Modern French, English and German Authors) // Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy, 2015. -Vol 6 No 6 S2. – P. 259.